

TALIM JARAYONIDA INNAVATSION YONDASHUVLARNI JORIY ETISH

Karimova Madinabonu Dilshodbek qizi

Andijon iqtisodiyot va pedagogika universiteti

«Iqtisodiyot va pedagogika» fakulteti «Ijtimoiy gumanitar fanlar» kafedrasi assistenti

Annatatsiya. Ta'lim jarayonida yangiliklar yoxud innovatsion yondashuvlar asosida darslarni olib borish ta'lim muassasalari faoliyatiga innovatsion ta'lim elementlarini kiritish va bu bilan bir qatorda pedagogik innovatsiyalar to'g'risida tushunchaga ega bo'lishi kerakligimuhum omil sifatida ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar. innovatsiya, innovatsion jarayonlar, innovatsion ta'lim, innovatsion texnologiyalar, o'lchangan qiymat, texnologik kompetensiya.

Ta'lim muassasalari o'z faoliyatiga innovatsion ta'lim elementlarini kiritdi, natijada tezroq rivojlanish ehtiyoji va pedagoglarning buni tezda amalga oshira olmasligi o'rtasida jiddiy ziddiyatlar yuzaga keldi. Maktab ta'limini zamonaviy nuqtai nazardan innovatsion rivojlantirish, yuzaki qaraganda ancha oson tuyuladi, ammo bu ancha murakkab ish bo'lib bunda "yangi", "yangilik", "innovatsiya", "innovatsion jarayonlar", "innovatsion ta'lim", "innovatsion texnologiyalar" kabi tushunchalarni zamonaviy nuqtai nazardan puxta o'zlashtirish va ularga tayanish zarur bo'ladi.

Hozirga kelib innovatsiya atamasiga bir necha ta'riflar mavjud bo'lib ulardan:

"Innovatsion texnologiyalar – bu o'qituvchi va o'quvchilarining o'zaro ta'sirlashishining prinsipial jihatdan yangi uslub va metodlari bo'lib, ular pedagogik faoliyatda samarali natijalarga erishishni ta'minlaydi".

Innovatsion yondashuv asosida o'quvchilarni texnologik kompetensiyasini shakllantirish uchun, eng avvalo, pedagogik innovatsiyalar to'g'risida tushunchaga ega bo'lishi kerak. Pedagogik innovatsion jarayonlar G'arb davlatlarida o'tgan asrning 50 yillari oxirlaridan boshlab, mustaqil O'zbekistonda esa, keyingi 10 yillikda olimlar tomonidan maxsus o'rganila boshlangan. So'nggi yillarda mamlakatimiz olimlari tomonidan innovatsiya, innovatsion tafakkur, innovatsion faoliyat, innovatsion bozor, pedagogik innovatsiyalar haqida ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Hozirda ta'lim tizimidagi innovatsiyalar dolzarb bo'lib bormoqda. Zero, aynan ta'lim inson mavjudligini belgilab beruvchi asosiy sohalardan hisoblanadi. Ta'limning zamonaviy tizimida jamiyatning asosiy talablaridan biri har tomonlama rivojlangan, murakkab vaziyatlarda nostandard echimlarni topishga, ijodiy fikrlay oladigan va butun hayoti davomida uzlusiz ta'lim olishga qodir shaxsni tarbiyalab voyaga etkazish, shakllantirishdan iborat. Ilm fanga qaratilayotgan e'tibor shiddat bilan odimlayotgan bir paytda dars jarayoniga o'lchov vositalardan foydalanish ularni optimallashtirish muhum hisoblanadi.

Xususan: "O'lchov vositalarini tanlashni optimallashtirish uchun quyidagi dastlabki ma'lumotlarga ega bo'lish kerak:

- 1) o'lchangan qiymatning nominal qiymati;
- 2) o'lchangan qiymatning maksimal va minimal qiymatlari orasidagi farqning qiymati, me'yoriy hujjatlar bilan tartibga solingan;
- 3) o'lchovlar shartlari haqida ma'lumot." [4]

Shuni ham ta'kidlash joizki o'quvchilarda texnologik kompetensiyani shakllantirish – o'quvchilarni texnologik hayot tarziga tayyorlashga, umumiy farovonlik yo'lida aqliy va jismoniy mehnatga, amaliy hamda axloqiy-psixologik tayyorlikni shakllantirishga yo'naltirilgan o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirishning yaxlit uzlusiz jarayonidir.

Bugungi kunda Texnologik kompetensiyani shakllantirishning maqsadi – turli yo'naliishlarda halol, ijodiy mehnatga tayyorlikni shakllantirish, shaxsning salomatligini mustahkamlash, har tomonlama rivojlanishiga yordam berishdir.

Ta'lim-tarbiya mazmuni, maqsad va vazifalari davrlar o'tishi bilan kengayib taraqqiy etib borishi natijasida uning shakl, usul va vositalari ham takomillashib bormoqda. Hozirgi inson faoliyatining asosiy yo'naliishlari shu faoliyatdan ko'zda tutilgan maqsadlarni to'liq amalga oshirish imkoniyatini beruvchi yaxlit tizimga, ya'ni texnologiyalarga aylanib bormoqda. Xuddi shu kabi ta'lim-tarbiya sohasida ham so'nggi yillarda ta'lim texnologiyalari faol tarzda amal qila boshladi. Ma'lumki, ta'lim-tarbiya jarayoni katta avlod tomonidan o'z bilim va tajribalarini o'sib kelayotgan avlodga o'rgatishdan iborat bo'lib, bu jarayonda, asosan, inson hayoti uchun zarur axborotlarni avloddan- avlodga uzatish amalga oshiriladi. Inson hayoti axborotlar bilan chambarchas bog'liq.

Pedagogik kuzatishlar va amaliy tajribalar ko'rsatadiki, "Texnologiya" fanini o'qitishda o'qitishning innovatsion metodlarini, jumladan, STEAM – ta'lim yondashuvini qo'llash, zamonaviy dasturlarni joriy etishga bugungi kunda nafaqat O'zbekistonda, balki butun dunyoda katta ehtiyoj mavjud. CHunki jamiyat taraqqiyotining hozirgi davrida o'quvchilarni yoshligidanoq ishlab chiqarish, sanoat, xizmat ko'rsatish sohalari talablari asosida texnologik tayyorlash dolzarb masalaga, ehtiyojga aylanmoqda. Biroq maktab o'quvchilarida texnologik kompetensiyalarini shakllanganligi darajasi bugungi davr talablariga (texnologik savodxonlikning yuqori darajasi, kundalik muammolarni mustaqil hal etish qobiliyati, tez o'zgarayotgan ijtimoiy muhitga qiynalmasdan tez moslasha olish tarablariga) etarlicha mos emas.

Jamiyat rivojlanishining hozirgi bosqichida maktab o'quvchilarida texnologik kompetensiyalarini shakllantirishning asosiy maqsadlari O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi buyurtmasini bajarishga qaratilgan ta'lim jarayonida birlashadi, maktab o'quvchilarida texnologik kompetensiyalarini shakllantirishning maqsad va vazifalari davlat dasturlari va boshqa me'yoriy hujjatlar bilan aniqlanadi.

Agar umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarining texnologik komponentensiyalarini egallashga tayyorgarligini, ya'ni ularning o'zgartirish faoliyatiga bevosita jalb etilganligi tahlil etilsa, ularda uning mohiyati, tuzilishi va texnologik komponentensiyalarini shakllantirish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar haqida aniq tasavvurlarning mavjud emasligini kuzatish mumkin. Bu esa texnologik bilimlarni o'zlashtirish bo'yicha o'quvchilarga qo'yilgan talablar va ularda innovatsion yondashuv asosida texnologik komponentensiyalarini shakllantirishga imkon beruvchi o'qitish modelining mavjud emasligi o'rtasida ziddiyatli muammoni yechishning dolzarbligini ko'rsatadi.

Oqilona o'qitish modeli tuziladi, ular didaktik vazifalarni amalga oshirishga imkon beradi va o'qitishmetodlari, tashkil etish shakllari, vositalari, pedagogik usullar to'plamidan iborat. Ko'rsatiladigan qurollar va pedagogik texnik o'quv materiallariga, o'quvchilarning shaxsiy qobiliyati va rivojlanganlik darajasiga uyg'un bo'lishi kerak. Shuningdek, ta'lim muassasasining moddiy bazasi hisobga olinishi lozim.

"Dasturlarda mutaxasislik yo'naliishlarda qarab, ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarga soat ajratilgan bo'lsa, ba'zi yo'naliishlar uchun ma'ruza, amaliy va laboratoriya ma'shg'ulatlariga soatlar ajratilgan. Kursni nomidan kelib chiqan holda fan tajriba kursi bo'lganligi uchun ma'ruza, amaliy va laboratotiya ma'shg'ulotlari bo'lgani maqsadga muvofiqdir. Biroq o'qitishning informasion texnologiyasini rivojlanishi ba'zi oliy o'quv yurtlarida ma'ruza va laboratoriya ma'shg'ulotlar uchun, ba'zilar esa ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar uchun soat berilgan. Shu sababli, murakab materialni talabalarga yetkazishda o'qitishning zamonaviy texnologiyalaridan, masalan informasion texnologiyalaridan foydalanishi kerak." [2]

Ta'lim texnologiyasini amalga oshirish uchun ehtimoldan xoli bo'limgan va unga xalaqit beruvchi omillar va ularni bartaraf etish yo'llari o'ylab ko'rildi.

Ta'lim loyihasini amalga oshirishda quyidagi ishlarga alohida e'tibor qaratiladi:

-o'rganilayotgan mavzu bo'yicha maqsad, vazifalar bilan o'quvchilarni oldindan tanishtirish, muammo, topshiriqlarni, shuningdek, uy vazifalari, mustaqil ishlarni, ularni bajarish tartibi, paytini e'lon qilish, mavzuni to'liq o'zlashtirish bo'yichako'rsatmalar berish, etalon darajasida o'zlashtirish me'yorlarini aytib berish;

- ta'lim oluvchilarning faol, mustaqil faoliyatini rag'batlantirish, bolalar diqqatini bo'lim yoki mavzu mazmuniga tortish, uni qanday o'rgatish zarurligini aytib, bilishga qiziqish uyg'otish o'qish-o'rganishga havas, muammolarni bajarishga ehtiyoj uyg'otish. Emotsiyalar, tafakkur hodisalari bilimlarni o'quv holatlariga tatbiq etish yo'llari orqali mavzu bo'yicha ma'lumotlar to'plash, to'plangan ma'lumotlar yuzasidan joriy nazoratni tashkil etish, mavzuni to'liq o'zlashtirishga oid o'zgartirish, qo'shimcha, tuzatishlarni belgilash;

- bo'lim yoki mavzu bo'yicha to'plangan bilimlarga ishlov berish. Ta'lim jarayoni sxolastik xarakterga ega. Unda kutilgan va kutilmagan, rejalashtirilgan, favqulotda va tasodify hodisalar ham uchrab turadi. Binobarin, o'rganilgan natijalar asoslanib loyihaga yangi o'zgartirish, qo'shimcha, tuzatishlar kiritiladi, bolalarning etalon darajasiga qanchalik yaqinlashganliklari ham aytib o'tiladi;

- bo'lim yoki mavzu bo'yicha umumiylar xulosalar chiqarish, chiqarilgan xulosalarni murakkab o'quv holatlariga tatbiq qilish.

Oraliq nazorat natijalariga ko'ra mavzu yoki bo'lim bo'yicha axborot to'plash, to'plangan axborotlarga ishlov berish jarayonlarida o'quvchilar erishgan yutuqlarni tahlil qilish, o'quvchilarning bilim, malakasi, ijodiy faoliyat tajribasi, munosabatlaridagi kamchiliklarini ko'rsatish, har bir o'quvchiga yakuniy nazoratgacha bajaradigan qo'shimcha topshiriqlar berish, ularni o'quv materiallarini yanada atroficha etalon darajasida o'zlashtirishga rag'batlantirish;

- yakuniy nazoratning asosiy funksiyasi – ta'lim oluvchilarning bilim va ta'lim mazmuni elementlarini etalon darajasida o'zlashtirishlarini aniqlash, etalon darajasidan past o'zlashtirgan o'quvchilarni ogohlantirish, qo'shimcha topshiriqlar berish.

Nazorat qilish – baholash blokining vazifasi qo'yilgan maqsadni amalga oshirishning borishi haqida joriy, oraliq va yakuniy nazoratlarni o'tkazish, ya'ni muntazam ravishda qaytuvchan aloqani ta'minlash va axborotga qayta ishlov berishdan iborat. Olingan axborotni tahlil qilib, zarur hollarda kelgusida harakatlarga o'zgartirishlar kiritiladi va nihoyat, qo'yilgan maqsad va olingan natijalarning mosligi haqida xulosa chiqariladi. Har qanday maqsadga erishishda vaziyat bevosita natijalarning mosligi haqida xulosa chiqariladi

Ta'limni texnologizatsiyalashtirish – ta'limni rivojlantirish masalalarini sifatli hal qilish, ta'lim maqsadlariga erishishda o'qitish jarayonini o'qituvchining shaxsiy mahoratiga bog'liqbo'limgan holda universal tarzda loyihalashtirishni bildiradi.

O'quvchilarida texnologik kompetensiyalarni shakllantirishning hozirgi holatini o'rganish natijalari shundan dalolat beradiki, texnologik ta'lim va o'quv jarayonini moddiy ishlab chiqarish ehtiyojiga yo'naltirish ustuvor ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston ta'lim muhitida maktab o'quvchilarida texnologik kompetensiyalarni shakllantirish tizimini rivojlantirish ularni amaliyotga yo'naltirib o'qitishning yagona tizimini shakllantirishni, shuningdek, faoliyatning turli sohalarida moddiy va ma'naviy qadriyatlarni yaratishni ko'zda tutadi. SHu bilan birga, ta'kidlash joizki, jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar kontekstida ayni muammo nazariy va amaliy jihatdan hali o'z echimini to'la topgani yo'q, chunki ta'lim tizimining turg'unligi ya'ni stagnatsiyasi sharoitda o'quvchilarda texnologik kompetensiyalarni shakllantirish masalasiga yetarlicha

e'tibor berilmadi. Vaxolanki yangi kiritilgan texnologiya maktabda integrallashtiruvchi, tizim hosil qiluvchi imkoniga ega.

Shuningdek innovatsion yondashuv asosida tashkil etiladigan texnologik ta'limning birinchi yo'nalishi bu – amaliy faoliyatning turli shakllarida nazariy bilimlarni qo'llash asosida ilmiy texnologik dunyoqarashni shakllantirish. Ikkinci yo'nalishi – amaliy mehnat ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan texnologik ta'lim, uchinchi yo'nalishi – o'quvchilarni doimiy ravishda ijtimoiy foydali mehnatga jalb etish. Bunda o'quvchilarning o'quv-bilish, mehnat va ijtimoiy faolligining birligi hal qiluvchi ahamiyatga ega hisoblanadi.

Hozirda texnologik kompetensiyalarni talqin qilish borasida umumi yondashuvlarning ko'pligiga qaramay, o'quvchilarda texnologik kompetensiyalarni shakllantirish an'anaviy ravishda moddiy ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishlar sohasidagi texnologik ta'limning ayrim masalalari bilan cheklanib qolinadi.

Pedagogika o'quvchilarni nafaqat oddiy mehnat faoliyatiga, balki real ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga tayyorlashniham nazarda tutadi. SHunga asosan, umumi ta'lim nazariyasi va amaliyotida "mehnat ta'limi" tushunchasi o'rniha "texnologik ta'lim", tushunchalarini keng qo'llanila boshlandi. Texnologiya fani mazmunini takomillashtirish masalasi umumi o'rta ta'lim tizimining eng ustuvor zamonaviy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Umumi olib qaralganda texnologik ta'lim sohasining asosiy maqsadi yangi ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarda o'quvchilarni mustaqil ijodiy mehnat faoliyatiga tayyorlashda yordam ko'rsatish hisoblanadi. Texnologiya ta'lim sohasi olingan bilimlarni amaliyotda tatbiq etishga, ijodiy, analitik fikrlashga, o'quvchilarni yaratuvchanlik faoliyatining har xil turlariga jalb etish asosida ularda hamkorlikda ishslash tajribasini shakllantiradi.

Quyda aytilgan qobiliyatlar o'quvchilarning butun o'quv va mehnat faoliyati davomida shakllanadi. Texnologik ta'limning mohiyati yuqorida ko'rsatilgan qobiliyatlarning o'quvchilarda shakllanishi uchun eng maqbul shart-sharoitlarni yaratishdan iborat.

Kompetensiyalarni shakllantirish vazifalarini hal etish uchun maqsadlar texnologik ta'limning mavjud tizimini amaliy o'quv faoliyatini tizimli tashkil qilish elementi sifatida tavsiflaydi. Agar maktab o'quvchilarida texnologik kompetensiyalarni shakllantirish tizimi ijtimoiy-mehnat faoliyati va zamonaviy iqtisodiy shart-sharoitlarda ijodkorlikka tayyorlangan shaxsning shakllanishini ta'minlasa, uni umumi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Foydalanilganabiyotlar.

- 1.Golish L.V. Ta'lim shakllari: mazmun, tanlash va amalga oshirish. T-2002
- 2.Zaripov L.R. Mehnat ta'limi jarayonida individual yondashuv asosida o'quvchilarni intellektual rivojlantirish // "Ta'lim tizimidagi hamkorlik: ustuvor yo'nish va dolzarb vazifalar" mavzusida Respublika ilmiy-amaliy anjumani. Ma'ruza tezislari to'plami.227-229b 16.02.2013 yil. T.D.I.U
- 4.To'rayev.M.,Karimova.M. Analysis of the Methodology of Introduction Into the Educational Process of Modern Technical Measuring Equipment Used in Production, as Well as Caliper Nutrometry and Measurement Methods.Vol. 11 (2021)Published November 25, 2021 European Journal of Life Safety and Stability ISSN 2660-9630 (EJLSS) – 176-179 b